E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ABDULLA AVLONIYNING HAYOT FAOLIYATI VA IJODIY MEROSI

Murodov Nodirbek Oybek o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ta’lim muassasalariniboshqarish” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Anotatsiya: Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Abdulla Avloniy taniqli jurnalist, jamoat arbobi, shoir dramaturg, yozuvchi, tarjimon va ulkan ma'rifatparvar muallimdir. U juda ogir, suronli davrda ijod qilib, qisqa umri davomida ma'rifat, maorif va madaniyat masalalari bilan keng shug‘ullanib, bir necha jildga jo buladigan asarlar yozdi. Biz ushbu maqolada adibning hayot ijodi, butun dunyo tan olgan shox asarlariniing bunyod bo‘lishi haqida fikr yurutib qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: Mergancha mahallasi, yo‘qsullik, Shayxantavur, , Mullo Umar Oxund, «Shuhrat», «Osiyo», turon, teatrshunos, to‘ntarish, maktab, birinchi muallim, birinchi muallim, adabiyot, urf-odat, pedagogika.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to‘quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo‘lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o‘qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o‘qir edi. Abdulla Avloniy o‘z tarjimai holida yozishicha: «1885 yildan boshlang‘ich maktabda o‘qidim. O‘qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890 yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o‘qiy boshladim. Yoshim 13ga yetgach, yo‘qsullik menga ta' sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, otaonamŕa biroz yordamda bo‘lib, qish kunlarida o‘qir edim. So‘ngra O‘qchi mahalladagi domlamizning kam havsalaligidan, o‘quvda davomsizligidan O‘qchi madrasasini tark qilib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o‘qiy boshladim. Bu chog‘larda ham qish kunlarida o‘qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur edim». O‘ta iqtidorli bo‘lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. U 1894 yildan boshlab she'rlar yozishga kirishgan bo‘lsa-da, biroq yoshlik davrida yozgan she'rlari bizgacha saqlanmagan.Dastlabki she'rlarida va «Hijron» degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o‘qib-o‘rganishga targ‘ib qildi. Avbdulla Avloniy 1907 yilda «Shuhrat», «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo‘yadi. Abdulla Avloniy keyinroq «Sadoyi Turkiston» (1914-1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» (1918) gazetalarida, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida muharrir bo‘lib ishlaydi. Shundan so‘ng, u o‘zbek matbuotning zabardast vakili, o‘zbek matbuotning asoschilaridan biri sifatida taniladi.

Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professonal teatrga aylanishi uchun katta to‘siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg‘onishiga yordam ko‘rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo‘lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo‘lidagi zo‘r jasorati edi. Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi: «Avloniy truppa uchun «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Ikki muhabbat», «Portug‘oliya inqilobi» kabi dramalar yozdi, «Qotili Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor oilasi», «Badbaxt kelin», «Jaholat»,

«O‘liklar» kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi»1. Ammo bu asarlar nashr qilinmadi.

Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishidan keyin, 1918 yildan boshlab respublikamizda o‘qituvchilar uyushmasi, qrovullar, tunukachilar, ko‘nchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston respublikasi milliy Komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug‘ullanadi. 1919-1920 yillarda Avloniy Afg‘onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo‘lib ishladi. Xalqimiz o‘rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg‘oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniyning tariximizdagi o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi. 20-yillarda Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920 yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o‘lka bilim yurtida, so‘ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maorif institudida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1924-29 yillarda O‘rta Osiyo Davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi. Abdulla Avloniy yangi adabiyot dasturi asosida 1933 yilda o‘zbek maktablarining VII sinflari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzdi. Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan, jumladan, I.A.Krilovning 12 21ta masali, «Maymun ila ko‘zoynak», «G‘ayri jinsiy ittifoq», «It ila yo‘lovchi», «Qarg‘a ila Zag‘izg‘on», «Tulki ila Qarg‘a» kabi asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, «Maktab gulistoni» kitobida bosilib chiqqan. Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o‘rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. «Maktab», «maorif», «ilm», «fan» kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, «jaholat» va «nodonlik» esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o‘ziga xos o‘ringa ega; «Birinchi muallim» 1917 yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Jadidlar milliy ta`limnnig zamini sifatida ona tili o`qitish masalasiga e`tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma`naviyatni sut bilan kirgan...» deganlaridek, faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin edi. Bu jadid mutafakkirlari pedagogik qarashlarining tub maqzini tashkil qilar edi. Mahalliy millat bolalari uchun ochilgan davlat tasarrufidagi rus-tuzem maktablarida musulmon tili, dini va tarixini o`qitish masalasiga maxsus e`tibor berilmadi. O`z tili, dini, ma`naviyati, tarixidan xabarsiz kichik ma`murlar tarbiyalab yetishtirish ruslashtirish siyosatinnig birinchi va hal qiluvchi bosqichi edi. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Abdarashidxon o`g`li, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylari rahnamoligida ochilayotgan va xalq o`rtasida kata e`tibor qozonayotgan «usuli jadid» maktablari mohiyat e`tiboriga ko`ra rus-tuzem maktablariga qarshi qaratilgan edi. Abdulla Avloniy taniqli jurnalist, jamoat arbobi, shoir dramaturg, yozuvchi, tarjimon va ulkan ma'rifatparvar muallimdir. U juda ogir, suronli davrda ijod qilib, qisqa umri davomida ma'rifat, maorif va madaniyat masalalari bilan keng shug‘ullanib, bir necha jildga jo buladigan asarlar yozdi. U kelajak avlodning ma'naviy olamini kengaytirish borasida tinmay g‘amxo‘rlik qilib, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ustodi avval», «Muallimi soniy» kabi darslik va qo‘llanmalar hamda turkistonda sahna san'atini keng targ‘ib qilish ishida ham jonbozlik ko‘rsatib, «Advokatlik osonmiq», «Pinak», «Biz va siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi» kabi dramatik pesalar yaratdi. Avloniy «1894 yildan boshlab she’r yozishga tutingan» bo‘lsa-da, u she’rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning 1917 yilgacha bo‘lgan poetik merosi, asosan, «Adabiyot» nomli 6 qismdan iborat she’riy to‘plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig‘ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. 67 Shuningdek, o‘sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida ham shoir she’rlarini ko‘plab uchratamiz. Bu she’rlarning deyarli hammasi mazkur to‘plamlarga kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug‘bek Dolimov,pedagogika fanlari doktori Abdulla Avloniy — milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi.
2. www.ziyonet.uz

WORDLY
KNOWLEDGE